

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, I-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



**ISSN: 3060-463X**

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
<b>Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich</b>	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES .....	20
<b>Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li</b>	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
<b>Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	30
<b>Nosirova Kamola Alimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH .....	39
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	44
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
<b>Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
<b>Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi</b>	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOYIY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	64
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
<b>Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov</b>	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILIYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI .....	92
<b>Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li</b>	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTI SIFATIDA.....	99
<b>I.Boymurodov</b>	
TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	103
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI .....	110
<b>Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira</b>	



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI .....	115
<b>Almuradov Ne'mat Abdullayevich</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY MEXANIZMLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	123
<b>Kuzieva Nargiza Ramzanovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT MULKINI BOSHQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....	130
<b>Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARIDA SANOAT 4.0 MODELIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI.....	136
<b>Komilova Dilafruz Rustam qizi</b>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULAR VA AMALIY IQTISODIYOTNING INTEGRATSION MEXANIZMI ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	141
<b>Bobojonova Zarnigor Shokirovna</b>	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	149
<b>Axmedov Umidjon</b>	
NMSH TURIDAGI RELELARNING TEXNIK TAVSIFLARINI TEKSHIRISH UCHUN STEND ISHLAB CHIQISH. ....	156
<b>Raxmonov Bobomurod, Qodirov Azamat, Yusupova Shirin, Mirzaraxmedov Zafar</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ВЛИЯНИЯ КЛАСТЕРОВ ИНДУСТРИИ РАЗВЛЕЧЕНИЙ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ (ЗАНЯТОСТЬ, ДОХОДЫ, ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТОК, НАЛОГОВЫЕ ПОСТУПЛЕНИЯ): КРИТЕРИИ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ .....	163
<b>Султонмуродов Мирзо-Улугбек Мукумжон углы</b>	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРАХ: ПРИМЕНЕНИЕ AI-ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ГРУПП.....	170
<b>Джамолова Хилола Исматиллаевна, Алимова Машхура Тоирхоновна</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI .....	175
<b>Ulmasova Oygul Baxtiyorovna</b>	



# XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO‘NALISHLARI

## Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,  
mustaqil ilmiy tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xizmatlar sohasidagi kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishda davlat qo‘llab-quvvatlashining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Moliyaviy rag‘batlantirish (grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar), soliq mexanizmlari, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari, shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik kabi vositalarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi va baholanadi. Xulosa sifatida kichik biznes korxonalarining innovatsion faolligini oshirishda davlat siyosatining tizimli va maqsadli yondashuvi zarurligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xizmatlar sohasi, innovatsion rivojlanish, davlat qo‘llab-quvvatlashi, moliyaviy mexanizmlar, raqamli infratuzilma, inkubatsiya, akseleratsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются основные направления государственной поддержки инновационного развития малого бизнеса в сфере услуг. Рассматривается и оценивается эффективность таких инструментов, как финансовые стимулы (гранты, субсидии, льготные кредиты), налоговые механизмы, развитие цифровой инфраструктуры, инкубационные и акселерационные программы, а также государственно-частное партнерство. В заключение обосновывается необходимость систематического и целенаправленного подхода к государственной политике в повышении инновационной активности малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, сфера услуг, инновационное развитие, государственная поддержка, финансовые механизмы, цифровая инфраструктура, инкубация, акселерация.

**Abstract.** This article analyzes the main areas of government support for the innovative development of small businesses in the service sector. It examines and evaluates the effectiveness of such instruments as financial incentives (grants, subsidies, and preferential loans), tax mechanisms, digital infrastructure development, incubation and acceleration programs, and public-private partnerships. Finally, it substantiates the need for a systematic and targeted approach to public policy to enhance the innovative activity of small businesses.

**Keywords:** small business, service sector, innovative development, government support, financial mechanisms, digital infrastructure, incubation, acceleration.

## KIRISH

Respublikamizda xizmatlar sohasidagi kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu asosda kichik korxonalarni texnik va texnologik jihatdan yangilash, raqamlashtirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha hukumatning tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakatning kelgusi rivojlanish bosqichlariga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Mazkur hujjatda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, kichik biznes va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash, raqamli iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish hamda ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Murojaatnomada ta‘kidlanganidek, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, xizmatlar sohasida ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xizmatlar sohasidagi kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va ularni davlat tomonidan

qo'llab-quvvatlash iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz rahbari tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, 2026-yilda xizmatlar bozori hajmini 100 milliard AQSh dollaridan oshirish, sohaga 85 trillion so'm kredit va 9 trillion so'm subsidiya yo'naltirish rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlar xizmatlar sektorining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar ulushini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xizmat turlarini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Xususan, IT, sun'iy intellekt, fintex, konsalting va transport-logistika kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi xizmatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ustuvor vazifalar xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirish, ularning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Natijada sohada sog'lom raqobat muhiti shakllanib, xizmatlar sifati va samaradorligi izchil oshib boradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari so'nggi yillarda ham mahalliy, ham xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilmoqda. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari atroficha tahlil qilingan.

Jumladan, Djalilov F.A. xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtirish uchun soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish, innovatsion xizmatlar bozorini kengaytirish hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Abdukarimova Z.B. esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kichik biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati va ushbu yo'nalishdagi ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Kolmirzayev D., Yogubov A. va boshqa tadqiqotchilar ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

Jahon olimlari tadqiqotlarida mazkur muammo asosan empirik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi asoschisi D. Nortning ta'kidlashicha, huquqiy muhitning barqarorligi va institutsional mexanizmlarning samaradorligi kichik biznesning innovatsion faolligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xitoylik tadqiqotchilar Long Jing, Huang Xun-jing va Yu Zhi-yang davlat qo'llab-quvvatlashining kichik biznes innovatsion faoliyatiga ta'sirini empirik jihatdan o'rganib, texnologik, yuridik va moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi vositachi tashkilotlar bilan samarali hamkorlik korxonalarining innovatsion natijadorligini sezilarli darajada oshirishini asoslab berganlar. Yu Zhi-yangning alohida tadqiqotida esa kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash ularning resurs salohiyatini mustahkamlash va bozor imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil ekanligi ko'rsatib berilgan. G.A. Yarin innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning institutsional roli va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatiga alohida urg'u beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili xizmatlar sohasida kichik biznesning innovatsion rivojlanishida davlat qo'llab-quvvatlashining muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida ushbu masalani kompleks empirik yondashuvlar asosida yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadida tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xizmatlar sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi.

Empirik ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekistonning 2023–2025-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari, shuningdek, Jahon banki va ERIA kabi xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekistonning xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish tajribasi rivojlangan mamlakatlar amaliyoti bilan taqqoslandi.

Mantiqiy umumlashtirish, induksiya va tahlil usullari asosida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'nalishlari tizimlashtirildi hamda xizmatlar sohasidagi kichik biznes korxonalarining innovatsion



faolligini yanada oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikada xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati bir qator omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning mustahkam me'yoriy-huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lib, bu sohada izchil islohotlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda xizmatlar sohasi muhim o'rin tutadi. 2025-yilda xizmatlar hajmining 15 foizga o'sib, 82 milliard AQSh dollariga yetgani ushbu tarmoqning yuqori rivojlanish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi mazkur o'sish sur'atlarini yanada mustahkamlash va yangi rivojlanish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xizmatlar sohasi aholi bandligini ta'minlashning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholining salmoqli qismi aynan kichik biznes subyektlarida faoliyat yuritmoqda. Innovatsion rivojlanish natijasida yangi ish o'rinlari yaratilishi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasidagi kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish innovatsion rivojlanish bilan chambarchas bog'liqdir. IT xizmatlari eksportining 2025-yilda 1 milliard AQSh dollaridan oshgani hamda ushbu ko'rsatkichni 2030-yilgacha 5 milliard AQSh dollariga yetkazish bo'yicha belgilangan vazifalar sohaning istiqbollari yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu maqsadlarga erishishda davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlashda xizmatlar sohasini rivojlantirish muhim omillardan biridir. "Mahallada sanoat va xizmat" dasturi doirasida yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarining amalga oshirilishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda aholi daromadlarining oshishi hududlarning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sohani rivojlantirish maqsadida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiy mulkni himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan farmon va qarorlari, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Natijada imtiyozlar tizimi kengaytirildi, kreditlash mexanizmlari soddalashtirildi hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslari mustahkamlandi.

Bundan tashqari, davlat xaridlari, davlat-xususiy sheriklik va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanishi uchun yanada qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Respublikada xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari ham shakllangan bo'lib, ularni o'rganish va milliy amaliyotga moslashtirish sohaning istiqbolli rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Xorijiy mamlakatlarda xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion qo'llab-quvvatlash tajribalari

Mamlakat	Qo'llab-quvvatlash mexanizmlari	Xizmatlar sohasiga oid xususiyatlari	O'zbekiston uchun ahamiyati
Xitoy	Texnoparklar va biznes inkubatorlari, venchur fondlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, soliq imtiyozlari	IT xizmatlari, fintech, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning jadal rivojlanishi; biznes, ilm-fan va davlat hamkorligining yuqori darajasi	IT-parklar tarmog'ini kengaytirish, "Industriya 4.0" markazlarini tashkil etish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish
Germaniya	KfW rivojlanish banki orqali imtiyozli kreditlash, davlat subsidiyalari, startap inkubatorlari, dual ta'lim tizimi	Konsalting, injiniring va IT xizmatlarining rivojlanganligi; xizmatlar sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligi	"Biznes hamroh" markazlarini tashkil etish, dual ta'lim elementlarini xizmatlar sohasiga joriy etish



Janubiy Koreya	Startaplarni qo'llab-quvvatlash markazlari ("bir darcha" tizimi), sun'iy intellekt va chuqur texnologiyalarga yo'naltirilgan venchur investitsiyalar, hududiy startap xublari	AI asosidagi xizmatlar, raqamli platformalar, fintech va eksportga yo'naltirilgan IT xizmatlarining rivojlanganligi	"Bir darcha" tamoyili asosida startaplarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, "Next Unicorn" tipidagi dasturlarni joriy etish, AI laboratoriyalarini tashkil etish
Rossiya	Kichik innovatsion korxonalarini qo'llab-quvvatlash fondlari, texnoparklar, ilmiy-tadqiqot va biznes integratsiyasi	IT, konsalting va marketing xizmatlarining rivojlanishi; ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining mavjudligi	Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishni rag'batlantirish, innovatsion fondlar va texnoparklar faoliyatini kengaytirish

Jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, xorijiy mamlakatlarning xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish tajribasi O'zbekistonda ushbu yo'nalishni yanada takomillashtirish uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida tashkil etilgan. Xitoy tajribasi texnoparklar, inkubatorlar va venchur fondlar o'rtasidagi samarali hamkorlik innovatsion loyihalarning g'oyadan tijorat mahsulotigacha bo'lgan rivojlanish jarayonini jadallashtirishini ko'rsatadi. Mazkur modelning muhim jihati biznes, davlat va ilmiy muassasalar integratsiyasining yuqori darajada yo'lga qo'yilganligidir.

Ikkinchidan, Janubiy Koreya tajribasi startaplarni qo'llab-quvvatlashda natijadorlikka yo'naltirilgan va differensial yondashuvning samaradorligini namoyon etadi. Venchur investitsiyalar hajmining o'sishi, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ajratilayotgan mablag'larning kengayishi hamda "bir darcha" tamoyili asosidagi xizmatlar innovatsion tadbirkorlik rivojiga qulay sharoit yaratmoqda. Shuningdek, hududiy startap ekotizimlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar innovatsion faoliyatning hududlar kesimida muvozanatli rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston uchun Germaniya va Janubiy Koreya tajribalarining uyg'unlashgan modelidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Germaniyaning barqaror moliyalashtirish mexanizmlari va dual ta'lim tizimi, Janubiy Koreyaning startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha zamonaviy yondashuvlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalariga yo'naltirilgan investitsiya siyosati milliy innovatsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, xorijiy tajriba tahlili xizmatlar sohasidagi kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishda tizimli, izchil va natijador yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy moliyaviy instrumentlarini kengaytirish, startap infratuzilmasini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish xizmatlar sohasidagi kichik biznesning raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasida kichik biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash amaliyotiga e'tibor qaratsak, sohani qo'llab-quvvatlash tamoyillari orasida davlat paternalizmi tamoyilini alohida ko'rsatish mumkin. Buning mohiyati shundaki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uch xil yondashuv modeli orqali amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval

**Jahon tajribasida xizmatlar sohasida kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari**

Asosiy xususiyatlar	Mazkur xususiyatlar xos bo'lgan davlatlar
Yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish hamda joriy etish xarajatlarining 50 foizigacha qismini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish (subsidiyalar va imtiyozli qarzlardan orqali)	Fransiya, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlar
Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida foizsiz ssudalar taqdim etilishi	Shvetsiya
Dotatsiyalar ajratilishi hamda kichik biznesni moliyalashtirishda venchur fondlari imkoniyatlaridan keng foydalanilishi	Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar
Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun venchur moliyalashtirish fondlarini tashkil etish	AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Niderlandiya



Yakka tartibdagi ixtirochilar uchun patent va davlat bojlari bo'yicha imtiyozlar taqdim etilishi	Avstriya, Germaniya, AQSh, Yaponiya
Energiya tejamkor texnologiyalar va ishlanmalarga oid ixtirolar uchun davlat bojlaridan ozod etish amaliyoti	Avstriya
Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay soliq rejimlarini qo'llash va eksport faoliyatini rag'batlantirish	Xitoy
Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish (bozorga kirish, hamkorlar topish, axborot xizmatlari, imtiyozli ijara va zarur uskunalalar bilan ta'minlash)	Buyuk Britaniya, Italiya
Tadbirkorlik faoliyatining dastlabki bosqichlarida foizsiz yoki past foizli kreditlar ajratish amaliyoti	Germaniya
Tadqiqot natijalari asosida patent olish jarayonida boj va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar berilishi	Niderlandiya, Yaponiya, Germaniya

Birinchi model proteksionistik model bo'lib, unda rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasi hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli dasturlar o'z aksini topadi. Kichik biznes rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlarida "Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi" va "Kichik biznes texnologiyalari transferti dasturi" kabi mexanizmlar orqali innovatsion tadbirkorlik faol ravishda rag'batlantiriladi.

Ikkinchi model esa proteksionistik usullarni keng qo'llamaslikka asoslangan yondashuv hisoblanadi. Jahon tajribasida bunga Fransiya misol bo'lib, ushbu mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish asosan bozor mexanizmlari va umumiy iqtisodiy siyosat vositalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Uchinchi modelda esa yuqoridagi ikki yondashuvning samarali jihatlari uyg'unlashtiriladi. Buyuk Britaniya tajribasi bunga yaqqol misol bo'lib, unda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari davlat darajasida belgilangan bo'lsa-da, ular asosan bozor tamoyillariga mos mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ham kichik biznes subyektlarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kichik biznesni boshqarish tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish hamda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan qonunlar va qonunosti hujjatlari sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Yalpi ichki mahsulot hajmini 2030 yilga qadar ikki barobarga oshirish maqsadlarini amalga oshirishda ham kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida soliqlar soni 16 tadan 9 taga qisqartirildi. Shuningdek, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar natijasida ularning soni sezilarli darajada oshib, 500 mingdan ortdi.

Umuman olganda, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud yutuqlarni yanada rivojlantirish hamda sohaning innovatsion salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlardan samarali foydalanish istiqbollari mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar hamda xorijiy tajribalarni o'rganish natijalari xizmatlar sohasidagi kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishda kompleks va tizimli yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Xususan, Janubiy Koreyaning "bir darcha" tizimi tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda IT startaplari uchun yagona markazlashgan raqamli platformani yaratish hamda 2030-yilga qadar har bir viloyatda kamida bitta data-markaz faoliyatini yo'lga qo'yish hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutlarni kamaytirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Germaniya va Janubiy Koreyaning dual ta'lim tizimi tajribasi asosida xizmatlar sohasining IT, turizm, konsalting va fintech kabi yo'nalishlari bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini joriy etish, shuningdek, kichik biznes xodimlarini qisqa muddatli malaka oshirish kurslariga keng jalb etish maqsadida davlat tomonidan vaucher tizimini qo'llash sohada malakali kadrlar salohiyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, "Biznes hamroh" loyihasi doirasida xizmatlar sohasidagi kichik biznes subyektlari uchun "30 kun ichida start" tamoyilini joriy etish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida tadbirkorlar uchun qo'shimcha xarajatlar yuzaga kelishining oldini olish ishbilarmonlik muhitini

yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalari qoshida xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish, ilmiy ishlanmalarni kichik biznes faoliyatiga joriy etish va ularni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, konsalting va sertifikatlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi ilmiy-amaliy markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish innovatsion rivojlanishning institutsional asoslarini mustahkamlaydi. Umuman olganda, mazkur takliflarning izchil amalga oshirilishi Respublikamizda xizmatlar sohasidagi kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilib, mamlakatning innovatsion rivojlanish salohiyati va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlariga davlat, professional, konsalting, moliyaviy, injiniring, marketing, media, IT va operatsion xizmatlarni kompleks ko'rsatish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2025-yil 13-dekabr. <https://lex.uz/docs/-7911978>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, PF-176-son. 2025-yil 29-sentyabr. <https://lex.uz/uz/docs/-7746045>
4. "2025–2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-50-son Farmoniga 6-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>
5. Djalilov F.A. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'nalishlari va vositalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2023. – №6. – 45–56 b.
6. Abdukurimova Z.B. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 48 b.
7. Yogubov A. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishda davlat siyosatining roli // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2024. – №1. – 32–38 b.
8. Kolmirzayev D. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining innovatsion rivojlanishi // Moliya va bank ishi. – Toshkent, 2023. – №4. – 27–35 b.
9. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge University Press, 1990. – 159 p.
10. Long Jing, Huang Xun-jing, Yu Zhi-yang. The Impact of Government Support on the Innovation Performance of Small and Medium-sized Enterprises: The Mediating Role of Service Intermediaries // Journal of Innovation & Knowledge. – 2024. – Vol. 9. – P. 1–12.
11. Yu Zhiyang. Government Support, Service Intermediaries and Innovation Performance of Small and Medium-Sized Enterprises // Journal of Nanjing University. – 2023. – No. 4. – P. 45–58.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)